

## FARG`ONA VODIYSINING IQLIMI VA YOG`INLARI

***Illhomjon Ihtiyorjon o‘g‘li Muhitdinov***

*Farg‘ona davlat universiteti geografiya kafedrasи o‘qituvchisi*

[Illhomjonmuhitdinov@gmail.com](mailto:Illhomjonmuhitdinov@gmail.com)

***Zuhriddin Zarifjon o‘g‘li Maxammadov***

*Farg‘ona davlat universiteti geografiya 2-kurs talabasi*

[zuhriddinmaxammadov@gmail.com](mailto:zuhriddinmaxammadov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Farg`ona vodiysiga qisqacha tavsif va iqlimning tarkib topishi, havo massalari yog`inlar miqdori, ayniqsa yog`inlarning qor shaklida yog`ishining so`ngi yillarda o`zgarishiga sababchi omillar yoritilgan. Maqola annotatsiya, kalit so`zlar, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

**Kalit so‘zlar:** Farg‘ona vodiysi, iqlim xususiyatlari, geografik joylashish, yog‘ingarchilik, qor, yog‘in, cho‘llar, tuproq, kontinental, quruq.

**Asosiy qism:** Farg‘ona vodiysi qadimdan serhosil vodiy bo‘lib, uni qulay tabiiy-iqlim sharoiti va unumdon yeri uchun "Oltin vodiy" deb atashadi.

Farg‘ona vodiysi Tyanshan va Hisor-Oloy tog‘ tizmalari orasida joylashgan. Farg‘ona vodiysi bodom shaklida sharqdan g‘arbga 300 km ga cho‘zilgan, o‘rtacha kengligi 80-100, eng kengaygan sharqiy qismi 150 km ga boradi.

Farg‘ona vodiysining umumiyligi iqlim xususiyatlari uning geografik joylashishi, tevarak-atrofning baland tog‘ tizmalari bilan o‘ralganligi, hududning subtropik iqlim mintaqasining kontinental tipiga mansub ekanligi, katta suv havzalaridan uzoqligi va ulkan cho‘llarga qo‘sniligi bilan bog‘liq. Bular vodiy iqlimining o‘ta kontinentalligi va quruqligini belgilaydi. Bu yerda qurg‘oqchil davr uzoq davom etadi, madaniy o‘simgilarning vegetasiya davrida tuproq qoplamida tabiiy namlanishning bo‘lmasligi agrolandshaftlarda sun’iy sug‘orishni talab etadi.

Farg‘ona vodiysi atrofi tog‘lar bilan o‘ralganligi tufayli shimoldan, shimoli-sharqdan esuvchi sovuq va g‘arbdan esuvchi nam havo massalarining bevosita o‘tishiga to‘siq bo‘ladi. Shu sababli uning iqlimi issiq, quruq, davomli yoz hamda

mo‘tadil qish bilan tavsiflanadi. Qishda vodiyning atrofini o‘rab olgan tog‘lardan esadigan sovuq havo Farg‘ona botig‘ining markaziy qismida to‘planib qoladi.

Vodiyda qishin-yozin havo harorati g‘arbdan sharqqa tomon hamda markaziy qismidan adirlar tomon pasayib boradi: Qo‘qonda yanvarning o‘rtacha harorati –2,2 °C, iyulniki +27,5 °C bo‘lsa, Kampirravotda yanvarniki – 4,8 °C, iyulniki +24,9 °C ni tashkil etadi. Ba’zi yillari shimol va shimoli sharqdan sovuq havo massalari esib, tog‘lardan oshib o‘tishi natijasida vodiy harorati pasayib ketadi. Ana shunday paytda eng sovuq harorat –26 –30 °C ga tushadi.

Vodiyning tog‘li qismlarida esa yog‘ingarchilik ancha ko‘p. Buning natijasida Farg‘ona vodisyida o‘ta kontinental va quruq cho‘l mintaqalaridan boshlab, yiliga 1500-2000 mm yog‘in yog‘adigan qariyb dengiz iqlimli hududlar ham mavjud bo‘lib, vertikal zonallik yaqqol seziladi. Umuman olganda esa vodiyda iqlim kontinental, yozi issiq, bahor va kuzi salqin va qishi nisbatan sovuq. Yil davomida quyosh 2550-2800 soat nurini sochib turadi va bu jihatdan vodiy Toshkent va Bayramalidan qolishmaydi. Summar quyosh radiasiysi yiliga 150 kkal/sm<sup>2</sup> bo‘lib, yuqoriga chiqqan sari oshib boradi va 4000 m balandlikda 170 kkal/sm<sup>2</sup> atrofida bo‘ladi.

Iqlim hosil bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etuvchi atmosfera sirkulyasiysi qish oylarida Sibir antisikloni ta’sirida bo‘lib, kam bulutli, ba’zan tumanli ob-havoning ko‘p vaqt (40-50%) kuzatilishiga sabab bo‘ladi. Bunda ob-havoning o‘zgarishi sovuq havo frontlarida to‘lqinli faoliyat yuzaga kelishi, ba’zi hollarda shimoliy, shimoliy-g‘arbiy va g‘arbiy havo oqimlarining kelishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bahor oylarida frontal jarayonlarning takroriyligi katta bo‘lib, bulutli, yog‘inli va tumanli ob-havo ko‘p kuzatiladi. Yoz oylarida O‘rta Osiyo hududida kichik gradiyentli barik maydon ko‘p kuzatilib, frontal jarayonlar, ayniqsa sekin siljuvchi yuqori siklon uchun sharoit ko‘p bo‘ladi; ammo transformasion jarayonlarning kuchliligi sababli ular ob-havoda sezilarli o‘zgarishlar chiqara olmaydi. Kuzda ham kichik gradiyentli maydonning takroriyligi katta (30-40%), ammo sovuq havoning kelishi ob-havoda ancha sezilarli o‘zgarishlar beradi, havoning keskin sovushi, kuchli shamollar kuzatiladi.

Eng kam yog‘inli oy vodiyning ko‘p qismida avgust yoki sentyabrdir. Bu oylarda yillik yog‘in miqdorining 2-3% i kuzatiladi. Faqat Turkiston va Oloy tizma tog‘larining baland tog‘ qismlarida eng kam yog‘in qish oylarida – dekabr, yanvar yoki fevralda qayd etilib, yillik yog‘inning 3-4% ni tashkil etadi.

Baland tog‘li rayonlarda yog‘in asosan qor shaklida yog‘adi. 2500 balandlikda qor va yomg‘ir nisbati bir xil, undan quyida esa yomg‘ir ko‘proq yog‘adi. Tog‘larda qorning to‘planishi va uning bahor va yozda erib, daryolarni to‘yintirishi sug‘orma dehqonchilik uchun o‘ta ahamiyatlidir.

### **Xulosa**

Farg`ona vodiysida jumladan farg`ona viloyatida yog`inlar miqdori ayniqsa yog`inlarning qor shaklida yog`ishi oldingi 10 yilliklarga qaraganda kamaymagan faqat Orol dengizi qurib maydoni qisqarishi natijasida bosim o`zgarishi yuzaga kelgan va bu holat farg`ona vodiysiga kirib keladigan siklon va antisiklonlarning yo`nalishini o`zgarishiga sabab bo`lmoqda natijada yog`inlar miqdori vodiyning shimoliy va shiloli-sharqiy qimlarida yog`inlar meyoridan ko‘p janubiy qismlarida esa keskin kamaymoqda. Farg`ona vodiysining shimoliy qismlariga ayniqsa kosonsoy hududlarida yog`inlar miqdori keskin ortishi natijasida oxirgi yillarda sel havfi kuchaymoqda lekin Farg`ona vodiysining janubiy qismi va Farg`ona viloyatida yog`inlar miqdori ayniqsa yog`inlarning qor shaklida yog`ishi ancha kamaygan. Global iqlim o`zgarishi natijasida qish oylarida xaroratning biroz ko‘tarilishi yog`inlarning 80-90 % yomg‘ir shaklida tushishiga sabab bo`lmoqda. Iqlim ilishi sharoitida Farg`ona viloyatida o‘rtacha yillik harorat 1976 yildan ko‘tarilib kelmoqda. Trend qiymatlari asosida xulosa qilib aytganda, Farg`ona vodiysida o‘rtacha yillik harorat 1921 yildan 2010 yil orasida 2-3o ga oshganligini e’tirof etish mumkin.

Farg`ona viloyatida meteostansiyalarda kuzatilgan havo xaroratining o‘rtacha yillik qiymadlaridan yuqori bo‘lishi oxirgi yillarga to‘g‘ri keladi va bu haroratning oxirgi yillarda ko‘tarilib boraётganini ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar:**

1. Ilhomjon Ihtiyorjon O‘G‘Li Muhitdinov, Jahongirmirzo Jamoliddin O’g’li Mamatisakov FARG‘ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI // Scientific progress. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/farg-ona-vodiysining-janubiy-qismi-gidrografiysi> (дата обращения: 17.01.2022).
2. Jahongirmirzo Jamoliddin O’g’li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O‘G‘Li Muhitdinov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION // Scientific progress. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prospects-of-development-of-ecotourism-in-the-protected-natural-areas-of-fergana-region> (дата обращения: 17.01.2022).
3. Ilhomjon Ihtiyorjon O. G., Li Muhitdinov S. O. X., DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK O. R. Academic research in educational sciences. 2021. № 7 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/so-x-daryosi-oqimining-shakllanishida-gidrometeorologik -omillarning-roli> (дата обращения: 07.12. 2021).
4. Ilhomjon Ihtiyorjon O‘G‘Li Muhitdinov SO‘X DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI // Academic research in educational sciences. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/so-x-daryosi-oqimining-shakllanishida-gidrometeorologik-omillarning-roli> (дата обращения: 17.01.2022).
5. Jahongirmirzo Jamoliddin O’g’li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O‘G‘Li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION // Scientific progress. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prospects-of-development-of-agricultural-tourism-in-fergana-region> (дата обращения: 17.01.2022).